

## YOSHLAR TARBIYASIDA MUSIQA MADANIYATI VA O’ZBEK AN’ANAVIY QADRIYATLARINING O’RNI.

Mamajonov Ulug‘bek Maxammattolibovich  
Andijon davlat pedagogika instituti  
Tasviriy san’at va musiqa ta’limi kafedrasida dotsenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19426058>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoshlar tarbiyasida musiqa madaniyati va O‘zbek an’anaviy qadriyatlarining o‘zaro bog‘liqligini o‘rganadi. Maqom, kuy-qoshiq, ashulalar, xalq qo‘shiqlari kabi musiqa turlarining axloqiy, estetik va ijtimoiy omillari yoshlar ongida tarbiyaviy effektlarni shakllantirishdagi rolini tadqiq qiladi. Yaqin tarix va madaniyat namunalarini namoyon etilgan holda, an’anaviy qadriyatlar (murojaat etishga tayyorlik, mehmondo‘mlik, mehnat faxrini qadrlash, esa uchrashuvlar, oilaviy va mahalliy ahillik) musiqa orqali avloddan-avlodga o‘tishi ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** xalqona, qadriyatlar, an’ana, vatanparvar, ta’lim-tarbiya, maqom, kuy-qoshiq, xalq qo‘shiqlari, yoshlar tarbiyasi, axloqiy me’yorlar, milliy o‘zlik.

### **Kirish.**

Qadriyatlar qadri - mustaqillik sharofati va istiqloq shukhi ila ko‘p orzu -niyatlarimiz ro‘yobga chiqmoqda.

An’analar qadim qadimlardan insoniyat turmushi ijtimoiy faoliyati, mehnatidagi ibratli hayot saboqlaridir. Ularni avlod ajdodlar uchun yo‘l yo‘riq darslaridir, desak yanglishmagan bo‘lamiz. Har qanday urf-odatlar, udumlar, rasm- rusumlar, marosimlar, ya’ni qadriyatlar va an’anaviy xalq pedagogikasi milliy ruh, xulq, o‘zbekona odob-axloq mevasi bo‘lib, uni yaratgan zukko xalq tarbiyasini asosini tashkil etishligini anglamadilar, to‘g‘rirog‘i, anglaslar ham tan olishni istamay ma’naviy qashshoqlashib qolishimizga sababchi bo‘ldilar. Vaholanki, sharqona, birinchi navbatda, o‘zbekona qadriyatlar, pedagogik ta’lim - tarbiya, uning bosh tizimi bo‘lmish pand nasihatlar, o‘gitlar, davatlar, yo‘l yo‘riqlar, yosh avlodning madaniy, axloqiy ruhiy, ma’naviy ma’rifiy kamoloti hamda jismoniy yetukligida asrlar davomida muhim hal qiluvchi o‘rin tutib kelganligi tarixdan ayondir.

### **Asosiy qism**

Qadriyatlarni xalq ijod qiladi, ular xalqning bebaho oltin merosi. Ularning saqlovchisi ham, hayotga joriy qiluvchisi ham, eskilarning ma’no- mazmunini yanada sayqallastiruvchisi va boyituvchisi ham, zamon hamda davrlar, avlod-ajdodlar talab e’htiyojlari, tajribalari asosida asta sekin yangilarini yaratuvchisi va turmushga tadbiq etuvchisi ham ana shu ijodkor xalq. Ayrim shaxslar, ular qanchalik zukko bilimdon va donishmand bo‘lmasin, ular tomonidan o‘ylab chiqilgan, “kashf” qilingan qadriyat xalq tomonidan qabul qilinmasligi, e’tirof etilmasligi tabiiy bir xol.

Xalqimiz yaratgan o‘zbekona qadriyatlar rang barang va beqiyosdir. Ularning sanog‘i taxminan 10 mingdan oshadi. Ammo bir haqiqatni unutmaslik kerak. Gap qadriyatlarning qanchalik ko‘p yoki ozligida emas, balki ma’no mazmunning teranligi, jamiyat hayotida, yosh avlod tarbiyasida tutgan o‘rni, ta’sir kuchidadir. Shunisi hayratlanarliki, o‘zbekona qadriyatlarning har biri mustaqil tarixiy, badiiy estetik, falsafiy – badiiy mukammal asar, deb atalishga haqli.

Bizningcha, qadimiy va ayni paytda zamonaviy o‘zbekona qadriyatlarni shartli ravishda quyidagi turlari bo‘lish mumkin:

- to‘rt unsur; yer, suv, olov, havo haqidagi;

- insonning ona qornida paydo bo’lishi, dunyoga kelishi uni tantanali ravishda ro’yxatga olish, ism qo’yishi, unib o’sishi bilan bog’liq;
- inson va uning ijtimoiy faoliyati, say harakatlari bilan bog’liq;
- mehnat va mehnatsevarlikka oid;
- zamon, jamiyat, Vatan va vataanparvarlik, millatga el yurtga sadoqatlikka oid;
- ta’lim tarbiya va axloq odob, pand nasihatlar, o’gitlar bilan bog’liq;
- oila, sevgi, ishq, muhabbat va boshqa insonparvarlikka oid;
- xalqona qonun va qonunchilik, umuman xuquqiy tarbiyaga oid;
- qadriyatlar borasidagi qadriyatlar;
- dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik, bog’dorchilik madaniyatiga oid qadriyatlar;
- hayvonlar va o’simliklar - tabiat bilan bog’liq qadriyatlar;
- yigitlar sha’ni, qizlar iffati, inson or nomusi bilan bog’liq;
- to’y marosimlari bilan bog’liq;
- keksalar qadriyati bilan bog’liq;
- xalq madaniyati, an’anaviy pedagogika, og’zaki ijodi, elshunoslik va boshqa ilm – fan va madaniyatga oid;
- bayram sayllari va marosim va ma’vsumiy tantanalar bilan bog’liq qadriyatlar.

Ko’rinib turibdiki, islom dini, rasm rusumlari, odatlar xalq og’zaki ijodi, yozma adabiyot, etnografiya, udumlar, marosimlar, an’analar, tasviriy va amaliy san’at, ilm- fan, tabiat, jamiyat, ta’lim - tarbiya, tarix, ijtimoiy hayot va xalq orzu umidlari va ideallari yuqorida sanab o’tilgan yuzlab qadriyatlarning manbalaridir.

O’zbek an’anaviy qadriyatlar, hususan, xalq pedogogikasi, og’zaki ijodi, uning tarkibidagi pandnomalar, o’gitlar, nasihatlar, olqish duolar har kun har daqiqa jonli jatumanlarda yashab, turmush tarzimizni bezab, ayniqsa, farzandlarimizga to’g’ri bo’lish, tog’ri yashash va odob axloqi joyida bo’lishlikni eslatib turuvchi, da’vat qiluvchi manbalardir. Ularning ijtimoiy tarbiyaviy hamda umumbashariy ahamiyati ham shunda. Qisqasi, o’zbekona qadriyatlarimizning betinim qaynab toshib turuvchi buloqlari chanqoq qalblar chanqog’ini qondiruvchi, tabiatga jon ato etuvchi musaffo chashmalaridir. Bu chashmadan ma’naviy - ma’rifiy tashnalikni bostirish uchun qanchalik ko’p istemol qilmaylik chanqog’imiz shunchalik ortib boraveradi.

Demoqchimizki, yoshlarimiz xalqona qadriyatlardan nechog’lik ko’p saboq olsalar, ularning tafakkurlari shunchalik boyib, aql idroklari qayralib, har tomonlama kamol topaveradilar.

Qadriyatlarimizning yana bir umumiy, mushtarak tomoni shundaki, ularning barchasi, insonning iymon - e’tiqodda ma’naviy- ma’rifiy va axloqiy - ruhiy tarbiyada komil odam bo’lishlikka qaratilgan. Barcha qadriyatlar qatlamiga tarbiya, tarbiya va yana singdirilgan! Darvoqe, islom ibodat, taqvo axloqning odob, do’st - birodarlik, axillik, ota- ona, qarindosh urug’chilik, shuningdek, farz, vojib, sunnat, mustahab, halol va harom, mehr va oqibat, insof, diyonat va shunga o’xshashlar tashkil etadi.

Xalqona qadriyatlar islomiy qadriyatlarga hamoohang bo’lib ularda mehr oqibat, halollik, poklik, adolat, insof, vatanni sevish, elni e’zozlash, mehnatsevarlik, kamtarlik, mardlik, qo’ni qoshnichilik, botirlik, hushyorlik, hayr – ehson, mehmon do’stlik, qadr – qiymat, muhabbat, ishq - vafo, sadoqat, umid, taqdir, qarindosh- urug’chilik, sabr- qanoat, rizq- nasiba, tejamkorlik, farosat, g’urur kabi insoniy fazilatlar ulug’lanadi. Islomiy qadriyatlar ham hayotiy qadriyatlarda ham inson uchun qora dog’ bo’luvchi; kufr, razolat, hasad, adovat, hiyonat, yolg’onchilik, fitna fasot, zulm, dilozorlik, hudbinlik, ishyoqmaslik, tekin ho’rlik, haromho’rlik, boqimandalik, tanballik, hoyinlik, fohishalik, ilmsizlik, manmanlik, egrilik, tamagirlik, odobsizlik, noshudlik kabi salbiy hislatlar ayovsiz qoralangan.

Hullas, qariyatlar mazmuni xalq pedagogikasi qatlamlariga singdirilgan. Ular bag’rida kamol topgan. Demak, prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va oliy majlis tasdiqlagan “Ta’lim to’g’risida” gi qonun “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da belgilangan tarixiy qonun qoidalarni amalga oshirish orqali komil insonni tarbiyalab yetkazishda moddiy qadriyatlar bilan bir qatorda ma’naviy qadriyatlar ham olamshumul ahamiyatga ega.

Yaxshi qo’shiq kishi ko’nglini yayratadi, tasalli va umid baxsh etadi, hayotga muhabbat uyotadi. Yaxshi qo’shiq kamida uch yaxshidan tarkib topadi.

Yaxshi shior, yaxshi kuy va yaxshi ijro. Xalqimiz asrlardan beri sevib tinglab qiladigan Lutfiy, Navoiy, Bobur, Furqat va boshqa ko’pgina mumtoz shiorlarimizning azallari bilan aytiladigan qo’shiqlarda mazkur uch sifat uzviy bolangan. Shuning uchun ham ular umribaqiyydir. Ular millatimizning bebaho xazinasidir. Har bir xalqning o’z tarixi, eotiqodi va mentaliteti mavjud. Shu bois sanoati ham o’ziga xos bo’lmish tabiiy. Ayniqsa har bir millatning o’z musiqa sanoati borki quloimizga chalinish bilan qaysi xalqqa mansub ekanligini darxon anglaymiz, xis qilamiz. Milliy navolarda bir-birini takrorlaydigan nozik nolalar borki beixtiyor xayratga tushamiz. O’zbek xalqining ham betakror sanoati o’lmas navolari turfa xildir. Xalqimizning shodligi, am olamlari ham asrlar davomida musiqamizda, qo’shiqlarimizda aks etib kelyapti. Ulu mutafakkir, jahon progressiv madaniyati va adabiyotning nuroniy siymosi bo’lmish Alisher Navoiy bobomizning «Sarvi gulru kelmadi», «Istadim», «Qoshli», «Qaro ko’zum» azallari bilan kuylanadigan qo’shinlarimizni olib tahlil qilib ko’rsak, ularning nasriy bayoni, oyaviy mazmuni, musiqiyiligi, ohang tuzilmalarida o’zbek klassik musiqasiga qoidalar: daromad, avj, chuqur avj, har bir unli tovushlarda talqin qilinadigan murakkab, yoqimli qochirimlar so’zlarimiz isbotidir.

Milliy ma’naviyat va ma’rifat yangidan ko’z ochayotgan bir davrda mafkuramizning rivojlantirishda xalqimizning umrboqiy sanoat tarixini keng yoritish, musiqa merosimizni o’rganish va sanoatsevar xalqimizga etkazish muhim o’rin tutadi.

Ayniqsa bu borada ustozdan – shogirdga o’tib kelgan xalq anoanaviy ijrochilik maktabi asosiy manba sanaladi. Biz o’tmishda yashab ijod etgan buyuk allomalarimizning tarixiy asarlarida murojaat qilish bilan birga bobokalon sanoatkorlarimiz meros qilib qoldirib ketgan durdonalarni chuqur o’rganib bormoimiz lozim.

Buyuk Turon zaminida musiqa madaniyati va ijrochilik sanoatining rivojlanishi qadim zamonlarga bolanib ketadi. Buyuk sharq allomalari, Abu ali ibn Sino, Muhammad Al Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Paxlavon Mahmud, Umar Xayyom, mirzo Ulubek, Bobur, Abdurahmon Jomiy, Darvesh Ali Changiy kabi ulu bobokalonlarimiz o’zlarining risolalarida ijrochilik sanoati, musiqa ilmi va tarixi cholu sozlarining tuzilishi, ijrooviy uslublari, sanoatkorlik qonun-qoidalariga oid qimmatli maolomotlarni o’zlarining fikr va muloxazalarini bayon etib ketganlar.

Agar biz Amir Temur va temuriylar davrini olib taxlil qilib ko’rsak bu davr o’zbek xalqi hamda yaqin va O’rta Sharqning musiqa madaniyati va sanoatining rivojlanishtarixida muhim davrdir. O’sha davrlarda xalq musiqasi va harbiy marosimlar musiqasi, mumtoz maqom sanoati musiqiy folklor uzviy rivojlanib borgan. Amir Temur boy ma’naviy muxit musiqa sanoatining asosiy yo’nealishlari, choluchilik va ijrochilik, bastakorlar ijodi, shuningdek musiqa haqidagi fanning rivojlanishga keng imkon berdi. Tez rivojlanib borayotgan musiqiy amaliyot, ijodiy jarayon buyuk musiqa arboblarni paydo bo’lishiga olib keldi. Ularning ichida eng nufuzlisi – Xo’ja Abdulqodir Maroiy bo’lgan(1340-1435). Amir Temur bu musiqachining ayrioddiy musiqiy qobiliyati haqida eshitib uni Bododdan Samarqandga ko’chirib olib keladi. Samarqandda Maroiy ijrochilik va bastakorlik faoliyati bilan shuullangan. Maroiy bastakor sifatida 200 dan ortiq asarlar, shu jumladan ko’p qisimli turkum asarlar va usullar: «Zarb - alfatx», «Chaxor zarb»ni yaratdi, shuningdek «Tasnifi» «Xo’ja Abdulqodir», «Amali tarona», «Amali bo’ston», «Amali guliston»

kabi maqomlarga yangi bo’limlar kiritgan ekan. Afsuski bizgacha bu asarlarning faqat nomlarigina etib kelgan xolos.

### **Xulosa**

Bugungi kunda milliy musiqani asrash, rivojlantirish va uni yoshlar tarbiyasida faol qo’llash bizning eng muhim vazifamizdir. Chunki milliy musiqani sevgan, qadrlagan, uni yuragida his etgan yosh hech qachon begona g’oyalarga ergashmaydi, balki o’z xalqining sadoqatli farzandi bo’lib yetishadi.

Musiqaning madaniyati yoshlar tarbiyasida o’zaro bog’langan holda o’zbek an’anaviy qadriyatlarini saqlash va moslashtirishdagi kuchli vosita ekanini ko’rsatadi. Maqom, kuy-qoshiq, ashula va xalq qo’shiqlari kabi musiqiy turlar axloqiy me’yorlar, estetik daho va ijtimoiy mas’uliyat tushunchalarini shakllantirishda muhim rol o’ynaydi. Zamonaviy globallashtirish sharoitida qadriyatlarni saqlab qolish uchun moslashuvchanlik, ijodiy yondashuv va yoshlar bilan aloqa bo’yicha yangi usullar talab etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A. Qodirov - O’zbek musiqasi madaniyati, Toshkent, 2004.
2. Forobiy, A.N. “Musiqasi ilmi”. Toshkent, 1996.
3. I. Karimov “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch”. Toshkent, 2008.
4. M. Rasulov. “O’zbek folklori va og’zaki ijodiyoti”. Toshkent, 2015.
5. R. Yo’ldoshev. “Musiqasi va tarbiyasi”. Toshkent, 2010.
6. O’zbekiston xalq ijodiyoti namunalari to’plami. 1-10 jildlar. Akadem nashr